

YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ

2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN SAMALIYOT

МОЩНОСТЬ ДВИГАТЕЛЯ 12 л.с. (8,8 кВт)
МАССА ДВИГАТЕЛЯ 77 кг
МАКСИМАЛЬНАЯ СКОРОСТЬ 48 км/ч
ЭКИПАЖ 1 человек

ПЛОЩАДЬ КРЫЛА 47 м²
ДЛИНА 6,4 м

РАЗМАХ КРЫЛЬЕВ 12,3 м
ВЫСОТА 2,7 м

ОСНОВНОЙ МАТЕРИАЛ ДЕРЕВО (Ель)

МАССА:
○ ПУСТОГО 274 кг
○ СНАРЯЖЁННОГО 338 кг

Орвилл Райт
Уилбур Райт

TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.
 +998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00
 WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ

APREL №51

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
9-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-9**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-9**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 51-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 21 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

1. Ibodov Abror Asqar o'g'li AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI MHXSGA O'TISH JARAYONIDA HISOB SIYOSATINI TUZISH JARAYONI	7
2. Ibodov Abror Asqar o'g'li TRANSFORMATION OF THE FINANCIAL STATEMENTS OF JOINT-STOCK COMPANIES TO INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL ACCOUNTING	9
3. Ibodov Abror Asqar o'g'li AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBNING XALQARO STANDARTINI QO'LLANISHINING HUQUQIY ASOSLARI. MHXS ISHLAB CHIQUVCHI QO'MITA.....	10
4. Rayimqulov Shavkat Abduqahor o'g'li INNOVATION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROIRTIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI INVESTITSION MOLIYALASHTIRISH	12
5. Шералиев Ахрор Содикович РЕСПУБЛИКАДА АГРОСЕРВИС СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ.....	15



ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI MHXSGA O'TISH JARAYONIDA HISOB SIYOSATINI TUZISH JARAYONI

Ibodov Abror Asqar o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti magistranti
(+998977179177)
ibodov.abror@inbox.ru

Anotatsiya: Moliyaviy hisobning xalqaro standarti asosida moliyaviy hisobot tayyorlash hamda taqdim etishda hisob siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Aksiyadorlik jamiyatlari o'z hisob siyosatlarini xalqaro standart asosida ishlab chiqish uchun asos bo'ladigan standartlar hamda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarga to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari, hisob siyosati, aksiyadorlik jamiyatlari, moliyaviy hisob, buxgalteriya hisobining xalqaro standarti, AVECO, FIFO.

2020-yil 24-fevralda PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinishini respublikamizdagi barcha MHXS asosida hisobot tayyorlash maqsadida bo'lgan va bu orqali xalqaro investorlarni jalb qilish xohishida bo'lgan korxonalar uchun ayni muddao bo'ldi. Unga ko'ra, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijlik investorlarni muhim axborot manbaalari va muhiti bilan ta'minlash shuningdek jahon moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini yanada ochish, shuningdek, buxgalteriya hisobi va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlashni takomillashtirish maqsadida aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021-yil yakunlari bo'yicha o'z moliyaviy hisobotlarini MHXS asosida tayyorlashi, kerakligi takidlandi. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida aksariat aksiyadorlik jamiyatlari o'z buxgalteriya hisobi bo'linmalarini Moliyaviy hisobning xalqaro standarti asosida hisob yuritishni tashkil etish maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirishdi. Xususan o'z hisob siyosatlarini MHXS asosida tayyorlash choralarini ko'rishdi. Sababi hisob siyosati har bir korxonaning moliyaviy hisob tuzish hamda uni taqdim qilish jarayonida tanlagan hisob yuritish tamoyillari hamda usullarini belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hisob siyosatini ishlab chiqishdagi tamoyil bu barcha MHXS standartlari va unda ko'rsatilgan mezonlar shuningdek ushbu standartga berilgan sharhlar asosida qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Hisob siyosatida tanlangan usulga to'xtalsak, masalan korxonalar o'z aktivlarini qadrsizlanishini doimiy nazorat qilib borishi ikkita usul ya'ni daromad usuli yoki xarajatlar usulini tanlashi lozim. Bundan tashqari korxonalar hisob siyosatini ishlab chiqish jarayonida o'zining tashkiliy tuzilishi hamda, mavsumiyligi hamda faoliyatidan kelib chiqib ishlab chiqishi lozim. Aksiyadorlik jamiyatlari MHXS asosida o'z hisob siyosatlarini ishlab chiqishda 8-sonli “Hisob siyosatlari, buxgalteriya hisobi maqsadida baholashdagi o'zgarishlar va xatolar” nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standartidan foydalanishlari maqsadga muvofiq. Mazkur standartning maqsadi hisob siyosatidagi o'zgarishlarni, hisob baholaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va xatolarni qay tarzda tuzatishni yoritib berish bilan bir qatorda, hisob siyosatini tanlash va o'zgartirish to'g'risidagi me'zonlarini belgilashdan iboratdir. 8-son BHXS aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy hisobotlarini o'rnliligini yanada oshirish va unga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlash hamda oldingi davr uchun tuzilgan hisobotlarini tushunarligini oshirish va boshqa o'ziga yaqin bo'lgan faoliyat turi bilan shug'ullanadigan korxonalar moliyaviy hisobotini o'zaro qiyoslanuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. Boshqa standartlar kabi ushbu standart ham boshqa



standartlar bilan chambarchas bog'liq. Misol uchun hisob siyosati to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berish bo'yicha talablar 1-son BHXS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” to'g'risidagi standart hisob siyosatini tanlash va qo'llash bilan bir qatorda hisob siyosati va baholaridagi o'zgarishlarni shuningdek o'tgan davr xatosini tuzatish uchun qo'llanilsa, 12-son “Foyda solig'i” BHXS hisob siyosatidagi o'zgarish va o'tgan davrda yuz bergan xatolarni tuzatish bo'yicha soliqqa aloqador qismi uchun foydalanganlik tomonidan o'zaro bog'liqligini ta'kidlash joiz.

Hisob siyosatining retrospektiv hamda perespektiv ta'sir qilishini hisobga oladigan bo'lsak aksiyadorlik jamiyatlari hisob siyosatlarini ishlab chiqishda ehtiyotkorlik bilan yondoshganlari maqsadga muvofiqdir. Sababi hisob siyosatini ishlab chiqish jarayonida retrospektiv ta'sirga ega bo'lgan biror-bir ma'lumot yoki xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa va bu ma'lum bir vaqtdan keyin aniqlanadigan bo'lsa ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ortiqcha vaqt hamda katta xarajat qilinishiga olib kelish ehtimoli mavjud. Bugungi kunda ko'plab aksiyadorlik jamiyatlari nazoratga ega bo'lganligi sababli konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzadi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishda yuqorida takidlangan aksiyadorlik jamiyatlari 10-sonli “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” MHXS asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday aksiyadorlik jamiyatlari qaram korxonalarining hisob siyosati tamoyillarni hisob yuritish qoidalari hamda yondashuvlarini imkon qadar o'z hisob siyosatlariga yaqinroq tanlashga harakat qilishlari maqsadga muvofiq. Misol uchun bosh korxonona Tovar moddiy zaxiralarini hisobga olishda AVECO usulidan foydalanadi, uning qaram korxonasi esa FIFO usulidan foydalanadi va buni o'z hisob siyosatida belgilab qo'ygan. Mazkur holatda qaram korxonona o'zning alohida moliyaviy hisobotini odatiy tarzda tuzadi, ammo bosh korxonona konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish uchun qaram korxonaning Tovar moddiy zaxiralarini AVECO usulida qaytadan hisoblab chiqishi lozim bo'ladi. Bu esa ortiqcha vaqt va xarajat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida” sonli qarori.
2. D.E.Norbekov, A.N.To'rayev, Sh.Sh.Rahmonov “Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari” 2018-yil



TRANSFORMATION OF THE FINANCIAL STATEMENTS OF JOINT-STOCK COMPANIES TO INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL ACCOUNTING

Ibodov Abror Asqar o'g'li

Graduate student of Tashkent State
University of Economics
(+998977179177)
ibodov.abror@inbox.ru

Abstract: Organization of the transformation process and its implementation in order to prepare financial statements based on the international standard of financial accounting. For this reason, the standards that serve as the basis for joint-stock companies to prepare their financial reports based on international standards and the aspects that should be paid attention to are discussed.

Key words: international standards of financial accounting, transformation, joint-stock companies, financial reporting.

Methods of reporting according to international standards of financial accounting: - Transformation of the report while maintaining a parallel financial report. Keeping parallel accounts means simultaneously recording the operations performed in accounting in accounting registers based on national and international standards. In this way, every action taken is counted twice. In the case of parallel accounting, the accounting indicators of the financial report are formed on the basis of the accounting information maintained according to the MHSS. If we compare parallel accounting or simply the process of transformation, for example, in parallel accounting, the level of reliability in relation to the report data is high, but it requires a lot of expenses for joint-stock companies because of the involvement of qualified employees in the field of accounting. providing a permanent salary requires re-developing their software based on IFRS. Although the transformation of the report prepared on the basis of national standard does not require large expenses from the joint-stock companies, there is a possibility that it creates an information risk for the users of the report data and may cause a risk of delay in the submission of annual financial reports, because most of the financial and economic activities of the organization may require a long time as it is related to the fields. The transformation of the report is the process of recognizing the data of the report compiled according to national standard in accordance with the requirements of the IFRS and preparing the report by changing the data. Joint-stock companies can carry out the process of transformation of financial statements in two ways: the first is by the enterprise itself, improving the qualifications of its employees; in the second way, involving external experts. In the process of transformation of financial statements, joint-stock companies should use all the currently valid IFRS based on the requirements specified in them. When preparing a report based on the IFRS, first of all, the enterprises and organizations must develop accounting policies based on the IFRS, have an opening balance prepared on the basis of the IFRS during the transition to the IFRS, have a comparative financial statement for at least one year from the date of preparation of the IFRS must.

Forms of financial statements that can be transformed include:

- Financial statement
- Profit and loss statement and other comprehensive income
- Changes in private capital
- Statement of cash flows
- Account policy, explanation and comments to the report

Joint-stock companies, in most cases, apart from these reports, their management is additionally provided with information about the factors affecting financial results, the effect of expected changes in the enterprise, and the source of financing necessary for the enterprise.

Used literature:

1. D.E.Norbekov, A.N.Torayev, Sh.Sh.Rakhmonov "International standards of financial accounting" 2018
2. D.E.Norbekov, I.K.Ochiliv "International standards of financial accounting" educational methodological complex.



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBNING XALQARO STANDARTINI QO'LLANISHINING HUQUQIY ASOSLARI. MHXS ISHLAB CHIQUVCHI QO'MITA.

Ibodov Abror Asqar o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti magistranti
(+998977179177)
ibodov.abror@inbox.ru

Anotatsiya: Moliyaviy hisobning xalqaro standarti asosida moliyaviy hisobot tayyorlash hamda taqdim etishda hisob siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Aksiyadorlik jamiyatlari o'z hisob siyosatlarini xalqaro standart asosida ishlab chiqish uchun asos bo'ladigan standartlar hamda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarga to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari, huquqiy asos, investitsiya, aksiyadorlik jamiyatlari, moliyaviy hisobot, Moliyaviy hisobning xalqaro standartlarini ishlab chiquvchi qo'mita.

Moliyaviy hisobotlarni korxonalar tomonidan tayyorlash va taqdim etish tartibi, shuningdek uning maqsadi va qo'llash sohasi bo'yicha 2015-yil 24-aprelda PF-4720 «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni hamda 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinishini respublikamizdagi barcha MHXS asosida hisobot tayyorlamoqchi bo'lgan va eksport bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan korxonalar hamda investitsiyaga muhtoj korxonalar uchun ayni muddao bo'ldi. Unga ko'ra, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijlik investorlarni muhim axborot manbaalari va muhiti bilan ta'minlash shuningdek jahon moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini yanada ochish, shuningdek, buxgalteriya hisobi va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlashni takomillashtirish maqsadida aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021-yil yakunlari bo'yicha o'z moliyaviy hisobotlarini MHXS asosida tayyorlashi, kerakligi takitlandi. Ushbu qonun xujjatlarining qabul qilinishi aksiyadorlik jamiyatlari hamda boshqa tashkiliy tuzilishdagi korxonalarning moliyaviy hisobning xalqaro standarti asosida hisobot tayyorlashlari uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. MHXS asosida hisob yuritish uchun esa Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha qo'mita(MHXSQ) tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni hisob yuritishdagi yaqqol huquqiy asos deyinimiz mumkin. Bugungi kunda amalda bo'lgan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) 16 tani, Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) 25 tani, MHXSSHQ (IFRIC) tomonidan chiqarilgan sharhlar 15 tani, SHDQ (SHDQ) tomonidan chiqarilgan sharhlar esa 5 tani tashkil qilmoqda. Ushbu standartlarga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, Aksiyadorlik jamiyatlari dastlabgi bor MHXS asosida hisobot tuzishlari uchun 1-sonli MHXS “Xalqaro moliyaviy hisobot standartining birinchi marta qabul qilinishi” huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zi foydalanmaydigan asosiy vositasini ijaraga berib daromad oladigan va shunga qaramasdan ushbu mulkini asosiy vosita sifatida balansda qayd etadigan xo'jalik yurito'vchi subyektlari endilikda ushbu ko'chmas mulklarini moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotlarida Investitsion mulk sifatida qayd etishadi. Buning uchun esa 40-sonli BHXS asos bo'ladi.

MHXSQning maqsadiga to'xtaladigan bo'lsak u butun jahonda moliyaviy hisobot standartlarining mazmun jihatidan bir-biriga yaqinlashishida va yanada yaxshilanishida muhim rol o'ynadi. MHXSQning 1992 yilda qabul qilingan Ustaviga nazar soladigan bo'lsak unga ko'ra qo'mitaning maqsadi sifatida quyidagilar keltirilgan:

- Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish, foydalanish hamda jamoatchilik uchun moliyaviy hisobot standartlarini shakllantirish va chop qilish, uning qabul qilinishi va ularga amal qilinishiga har tomonlama yondaashish;

- Moliyaviy hisobotni taqdim qilishga aloqasi bo'lgan hisob standartlarini muvofiqlashtirish va umumiy holda yaxshilab borish ustida ish olib borish.



MHXSlar mamlakatlar va korxonalar tomonidan quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

- ko'plab mamlakatlarda hisob va hisobotga qo'yilgan milliy talablar uchun asos sifatida;
- hisob yuritishga nisbatan o'z talabini ishlab chiqayotgan mamlakatlar uchun namuna sifatida ishlatilishi (sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda endi rivojlanib borayotgan mamlakatlar uchun,);
- fond birjalari va tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobotlar xalqaro standarti bo'yicha tuzishni talab qilgan hollarda;
- kapital savdolari uchun standartlar ishlab chiqishda umumiy Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga asoslanishga qaror qabul qilgan Yevropa Komissiyasi kabi milliy organlar tomonidan foydalaniladi.

Tashqi iqtisodiy moliyaviy qarorlarni qabul qilish uchun albatta, butun jahon uchun yaxlitlangan moliyaviy hisob va hisobot bo'yicha tarkiban bir xil, umumqabul qilingan va majburiy standartlar to'plami muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu vazifani bajarish esa MHXSQ zimmasiga yuklatilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4611“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida” sonli qarori.
2. D.E.Norbekov, A.N.To'rayev, Sh.Sh.Rahmonov “Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari” 2018-yil
3. D.E.Norbekov, I.K.Ochilov “Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari” o'quv uslubiy majmua



INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROIRTIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI INVESTITSION MOLIYALASHTIRISH

Rayimqulov Shavkat Abduqahor o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Toshkent davlat transport universiteti iqtisodchisi

Telefon: +99 890 993-23-38

E-mail: rayimqulov1991@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida moliyaviy mustaqillikka erishish istiqbollari, innovatsion-investitsion sarmoyalarni jalb etish, moliyaviy samaradorlikka erishish yo'nalishlari talqin etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim siyosati, oliy ta'lim, ta'lim xizmatlari, moliyalashtirish, moliyalashtirish tendensiyalari, innovatsiya, investitsiya, sarmoya, inson kapitali.

Kirish. Inson huquqlari va erkinliklari har taraflama qo'llab quvvatlanib kelinishi bilan bir qatorda yoshlarning ta'lim olish huquqi alohida o'rin egallaydi. Yangi O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy yangilanishi uchun, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jahon hamjamiyatiga uyg'unlashish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish zarurati, oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan tashkiliy tuzilmalar va moliyalashtirish mexanizmlari, ta'lim xizmatlari bozorining barcha jabxalarida innovatsion yangiliklarga asoslanishidan kelib chiqmoqda. Bu oliy ta'lim tizimi mahalliy innovatsion tizimning ajralmas qismi ekanligi, ta'limga yo'naltirilayotgan investitsiyalar, istiqbolda innovatsion korxonalar va ishlab chiqarish sanoatini vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimining moliyaviy mexanizmlarini modernizatsiya qilish zarurati zamonaviy ta'lim siyosati to'g'risidagi hujjatlarda, prezident va hukumatning qaror va farmonlarida ta'limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha huquqiy asoslari, davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan, tumanlar va shaharlar budjetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag'lari hisobidan, shuningdek, budjetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi mumkinligi belgilab berilgan.

Qisqacha adabiyotlar sharhi. S.A.Belyakov (2012) ta'limni moliyalashtirish – ta'lim xizmatlariga haq to'lash bilan bog'liq munosabat bo'lib, ushbu xizmatdan foydalanmaydigan davlat tomonidan emas, balki ushbu xizmatdan foydalanadigan davlat tomonidan ko'rsatilishini e'tirof etgan.

D.A.Rahmonov (2018) o'zining O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha olib borgan tadqiqotida aytilishicha, “Ta'lim tizimini moliyalashtirish yo'nalishlarini kengaytirish lozimligi ta'lim bilan aholini qamrab olishning dozarbligi orqali ifoda etiladi. O'zbekistonda ta'limning qamrab olish darajasi bir muncha kichik raqamlarda bo'lib qolayotganligi uning moliyaviy dastaklari bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin”.

A.B.Sherov (2021) o'zining maqolasida ta'lim tizimini davlat tomonidan moliyalashtirilishiga e'tibor qaratib, maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'lim olishgacha bo'lgan davrni moliyalashtirish to'g'risida va davlat dasturlarida e'tibor berilayotgan jihatlarni keltirib o'tadi.

Ta'lim xizmatlarining xalqaro bozordagi umumiy o'sish va xalqaro talabalar oqimining ko'payishi fonida mutaxassislik bo'yicha talabalar ham o'zgarmoqda. Bu esa, ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy uslublari sifatida investitsion jabxalarini tatqiq etish va amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Bugungi kunda ta'lim tizimini davlat budjetidan ta'minlash rejimidan o'z-o'zini moliyalashtirish (investitsion sarmoya kiritish) rejimiga o'tish islohatlari jadallashmoqda.

Tahlil va natija. So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida adekvat (tenglashgan, mos, aynan bir, o'xshash) javob berishi kerak bo'lgan muammolar ham ortib bormoqda. Shu sababli oliy ta'lim tizimini tashkiliy jihatdan qayta qurish va moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini shakllantirish vazifasini qo'yishga bevosita sabab bo'lgan eng muhim tendensiyalarni ko'rib chiqamiz.

- Yaqin kelajakda kutilayotgan yangi texnologik jarayonlar, global innovatsion jarayonlarning



tezlashishi inson kapitalining aralashuvini kamaytiradi, bu esa, inson hayoti davomida ta’lim olish va yangilash zaruratini keltirib chiqaradi. Agar ishchilarning bilim va ko’nikmalari o’z vaqtida yangilana boshlanmasa, unda alohida mehnat resurslari va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini yo’qotadi.

- Rivojlangan mamlakatlarda hayot sifatining yuqori standartlariga bo’lgan talabning ortib borishi, ijtimoiy sohaga katta miqdorda investitsiyalar kiritilishi, o’rtacha umr ko’rish davomiyligini, xususan, uning faol bosqichida mehnat bilan bandlikni oshishiga olib keldi.

- Innovatsion faoliyat iqtisodiyotning yangi tarmoqlariga – xizmat ko’rsatish sohasiga, energiya tejash va ekologiya – hayot sifatini oshirish bilan bog’liq bo’lgan sohalarga o’tishi oydinlashmoqda. Yangi texnologik jarayonlarga mos keladigan rivojlanish yo’liga o’tgan mamlakatlar mehnat bozori va ta’lim xizmatlari bozorining globallashuvi sharoitida o’ziga xos mehnat taqsimotining yangi turi - mutaxassisliklarning milliy segmentatsiyasiga (yoshi, jinsi, oilaviy hajmi, turmush tarzi, millati, ta’lim, dini va hokazolar) duch kelmoqdalar.

- Raqobatning yangi turi bo’lgan innovatsiyalar sohasida xarajatlarni, xususan, mehnatni tejash ham raqobat ko’rinishiga chiqmoqda. Masalan, outsorsing (moliyaviy xarajatlar va shtatlarni optimallashtirishga erishish nazarda tutiladi) imkoniyatlaridan foydalanish va mehnat shtatlarisiz bandlikni ta’minlashdir.

Ushbu tendensiyalar ta’lim sohasiga investitsiyalar manbalari va tarkibining o’zgarishiga, ta’lim xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishiga olib keladi, oliy ta’lim tizimini tashkiliy qayta qurish va ta’lim faoliyatini moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini shakllantirishni talab qiladi.

Oliy ta’lim tizimida moliyaviy mustaqillik mexanizmlarini modernizatsiya qilishning mohiyatini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

- byudjet, tashkiliy tuzilma va kadrlar siyosati masalalarini hal qilishda universitetlarning mustaqilligi va mas’uliyatini kengaytirish. Bu universitetlarning raqobatbardoshligini oshirishga (tadqiqot va akademik mustaqillik nuqtai nazaridan), moliyaviy barqarorligini oshirishga, oliy ta’lim sohasida strategik va operatsion boshqaruvning zamonaviy usullarini qo’llashga yordam beradi;

- davlat buyurtmasi va to’lov-shartnomalaridan kelib chiqqan holda smeta mablag’larini byudjetlashtirishga o’tishni nazarda tutuvchi moliyaviy boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish mumkin;

- oliy ta’lim sohasida sifatni baholashda xalqaro tamoyillar va uslublar asosida tashqi ekspertlarni jalb qilgan holda ichki va tashqi monitoring orqali universitetlar faoliyati sifatini baholash tizimini takomillashtirish mumkin.

Davlat va bozor iqtisodiyoti uyg’unlashuvi sharoitida budjet mablag’larining cheklanganligi, birinchidan, davlat universitetlariga ajratilgan moliyaviy resurslari samaradorligini oshirishning ob’ektiv zaruratini keltirib chiqarayotganligi, ikkinchidan, budjetdan tashqari mablag’larga davlat ta’lim muassasalarini yanada faol jalb etish zarurligi ayon bo’lmoqda.

Oliy ta’lim tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining pastligini sifatida, cheklangan moliyaviy resurslar, o’quv jarayonlari bilan bog’liq bo’lgan tartibsiz pul tushumlari (ya’ni, to’lovlarni o’z vaqtida amalga oshirmaslik xatarlar), ta’lim xizmatlarini ko’rsatish jarayonining vaqt bo’yicha kengayishi, tijorat bo’lmagan faoliyatning cheklanishi kabi omillarni ko’rish mumkin.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish oliy ta’lim tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish muammosini hal qilish vositasi sifatida, ta’lim xizmatlari ko’lamini kengaytirish, yangi mutaxassisliklar ochish, qo’shimcha ta’limga xizmatlarini ko’rsatish, o’quv va yordamchi moddiy-texnika bazalarini qayta jihozlash, kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish hisobiga ta’lim xizmatlari sifatini oshirish, ta’lim xizmatlari narxini optimallashtirish (pasaytirish), ijtimoiy maqsadlarga erishish (masalan, kam ta’minlangan talabalar uchun ta’lim xarajatlarini qoplash) kabilarni olish mumkin.

Investitsion loyihalarning hajmiga qarab quyidagilarni ajratish mumkin:

- o’quv jarayonlarini moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga qaratilgan texnik loyihalar;
- yangi tarkibiy bo’linmalarni yaratishni nazarda tutuvchi tashkiliy loyihalar;
- ta’lim xizmatlari sifatini pasaytirmasdan, ularning narxini pasaytirishga qaratilgan iqtisodiy loyihalar;
- ijtimoiy loyihalar – ta’lim kreditlari berish, ta’lim sug’urtasi, moddiy rag’batlantirish.



Investitsion resurslarni shakllantirish manbalariga ko‘ra quyidagilar mavjud:

- budget investitsiya loyihalari (budgetdan maqsadli moliyalashtirish dasturlarini amalga oshirish);
- ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatidan olingan o‘z mablag‘laridan samarali foydalanish bilan bog‘liq ichki investitsiya loyihalari;
- tashqi sub’ektlardan olingan grantlar shaklida moliyalashtiriladigan loyihalar.

Xulosa. Inson kapitaliga sarmoya sifatidagi g‘oyalarning rivojlanishi va mamlakatning iqtisodiy o‘rishini ta‘minlash uchun oliy ta’lim sohasiga sarmoya kiritish muhimligini anglash lozim, bu sohada investitsiya strategiyasi va iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Investitsiyalardan maksimal foyda olish uchun ta’lim natijadorligi muhimdir. Ta’limga sarmoya kiritish bo‘yicha bunday strategiya va siyosatni shakllantirish tizimli yondashuvlardan foydalangan holda ilmiy ma’lumotlarga asoslangan chuqur fanlararo tahlilni talab qiladi.

Ta’lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘z samarasini beradi hamda barcha o‘quvchilarga yashash joyi, ijtimoiy, mulkiy holatidan qat’i nazar, zamonaviy ta’lim standartlariga javob beradigan va hududlarining innovatsion ijtimoiy yo‘naltirilgan rivojlanish talablariga mos keladigan yuqori sifatli ta’lim olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Belyakov S.A., Byudjet mablag‘lari, O‘quv qo‘llanma, M., 2012 yil, 208-bet.
2. Rakhmonov D.A., Improving the methodological framework for financing the social sphere in Uzbekistan, Dissertation abstract for the degree of Doctor of Economics (DSc), T., 2018 yil, 72-bet.
3. Sherov.A.B., Oliy ta’lim muassasalarini budget mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishni takomillashtirish yo‘llari, November 2021.
4. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.



**РЕСПУБЛИКАДА АГРОСЕРВИС СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ**

Шералиев Ахрор Содиқович

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти,
“Рақамли иқтисодиёт” кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада республикада агросервис соҳаси ва иқтисодиёт тармоқларига кўрсатилаётган кенг қиррали хизматлар тизимининг ривожланишига алоҳида эътибор қаратилган. Муаллиф томонидан республикада 2019-2020 йилларда Самарқанд вилоятида ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ва ушбу соҳада кўрсатилаётган хизматларга таъсир этувчи омиллар таҳлил қилинган, ҳамда ушбу йўналишда ўз илмий хулосаларини баён қилган.

Таянч иборалар: прогноз, ўртача сирғаниш коэффиценти, омилли эконометрик моделлаштириш, Чизикли регрессия, Коррелация матрицаси, Эконометрик модел ва натижалар.

Агросервис соҳасини ривожлантиришга оид тадқиқот ишининг аввалги бандларида асослаб берилган илмий-назарий жиҳатлар билан бирга, унинг бугунги кунда республикада шароитидаги мавжуд ҳолат ва тенденцияларни тадқиқ этиш орқали хизматлар самарадорлиги кўрсаткичларининг ҳозирги даражасини баҳолаш услубий-амалий нуқтаи назардан муҳим аҳамиятга эга. Бу борада бир гуруҳ соҳа мутахассислари фикрига кўра, бир томондан сервис хизматлари ҳажмининг республикадаги ўзгариш динамикасини чуқур таҳлил этишни талаб этса, иккинчи гуруҳ эса соҳа (агросервис) хизматлари самарадорлик кўрсаткичлари динамикасини ўрганиш зарур деб ҳисоблашади.

Бир томондан, хизматлар соҳасининг жадал ривожланиши миллий иқтисодиётнинг умумий ўсишида унинг ҳиссасининг кўпайиши билан биргаликда юз беради ва хизматлар соҳаси субъектларининг мавқеини мустаҳкамлайди. Иккинчи томондан эса, хизматлар соҳасининг ривожланиши аҳоли даромадлари ва турмуш даражасининг ошиши учун шароит яратади, аҳоли турмуш сифатининг ўсишига ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади. Шу билан бирга хизматлар соҳаси нафақат бевосита шу соҳанинг ўзида банд бўлган ва ишлаётган аҳоли қисмининг, балки бутун мамлакат аҳолиси турмуш даражасининг ошишига, даромадларининг кўпайишига кучли таъсир кўрсатади.

1-жадвал

**Республикада 2019-2020 йилларда иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларига
кўрсатилган хизматлар ҳажми ва унинг ўсиш суръати**

т/р	Хизмат турлари	Йиллар:						2020 й. 2019 й.га нисбатан, %
		2019			2020			
		Хизматлар ҳажми, млрд. сўм	Ўсиш суръати, % да	Жами хизматлардаги улиши, % да	Хизматлар ҳажми, млрд. сўм	Ўсиш суръати, % да	Жами хизматлардаги улуши, %	
1.	Алоқа ва ахборот-лаштириш	10891.7	108.3	5.6	12886	115.3	5.9	118.3
2.	Банк-молия	34036.6	147	17.6	45817.3	125.6	20.9	134.6
3.	Транспорт	54473.5	106.7	28.1	53772.5	91.6	24.6	98.7
4.	Ш.ж. автотранспорт	25653.4	105.1		29196.6	103.5		113.8



5.	Яшаш ва овқат-ланиш	5933.6	107.3	3.1	5878.5	86.5	2.7	99.1
6.	Савдо	48748.2	107.4	25.2	56553.9	101.7	25.8	116
7.	Қучмас мулк	5950.7	104.7	3.1	6089.7	91.1	2.8	102.3
8.	Таълим	7164.9	109.5	3.7	9073	107.4	4.1	126.6
9.	Соғлиқни сақлаш	3104.3	114.7	1.6	3209.4	89.9	1.5	103.4
10.	Ижара хизматлари	3733.5	98.3	1.9	4172.1	98.9	1.9	111.7
11.	Компьютерлар ва маиший товарларни тамирлаш	3200.1	107.1	1.7	3407.4	96.1	1.6	106.5
12.	Шахсий хизматлар	4660.1	105.4	2.4	4983.3	92.1	2.3	106.9
13.	Меморчилик, му-хандислик, техник синовлар ва таҳлил	4543.1	115.5	2.3	4925.7	93.7	2.2	108.4
14.	Бошқа хизматлар	7257.5	116.3	3.7	8084.7	98.3	3.6	111.4
	Жами	193697.8	113.2	100.0	218853.5	102.3	100.0	113.0

Таҳлилларнинг кўрсатишича, ҳозирда республикамиз қишлоқ хўжалиги тармоғи ва унинг маҳсулот етиштирувчи субъектлари, яъни, фермер, деҳқон ва томорқа хўжалиқларига ихтисослашган тегишли корхоналар томонидан қуйидаги асосий йўналишлар бўйича хизмат турлари кўрсатилмоқда:

- ММТП хизматлари;
- сувдан фойдаланувчилар уюшмаси (СФУ) хизматлари;
- минерал ўғитлар етказиб бериш бўйича сервис хизмати;
- уруғлик материаллари ва кўчатлар билан таъминлаш хизматлари;
- ўсимликларни кимё ва биологик воситалар ёрдамида турли касаллик ва ҳашаротлардан химоя қилиш ва бегона ўтларга қарши курашиш хизматлари;
- чорва молларига зоотехник, ветеринария ва селекция хизматлари;
- қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ташиш, саралаш, сақлаш ва сотиш бўйича хизматлар;
- қишлоқ хўжалиги субъектларини молиялаш ва кредит ресурслари билан таъминлаш хизматлари;
- ахборот-консалтинг хизматлари ва бошқалардан иборат.

Эътиборга молик жиҳат шундаки, кейинги йилларда давлат даражасида кўрилаётган таркибий-ташкилий, ижтимоий-иқтисодий, техник-технологик ва институционал қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантиришга асос яратмоқда (2-жадвал).



2-жадвал

2000-2021 йилларда республика қишлоқ хўжалигининг асосий макроектисодий кўрсаткичлари динамикаси

Кўрсаткичлар	2000 й.	2010 й.	2011 й.	2012 й.	2013 й.	2014 й.	2015 й.	2016 й.	2017 й.	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2021 й. 2020 й. га нисбатан, % да
Қишлоқ хўжалиги экин майдони, минг гектар	3778,3	3708,4	3601,6	3628,1	3658,6	3678,2	3694,2	3706,7	3474,5	3396,0	3309,4	3396,1	3260,7	96,0
Қишлоқ хўжалиги ялпи маҳсулоти, млрд. сўм	1387,2	30856,7	45285,9	55750,0	66435,3	81794,3	99604,6	115599,2	148199,3	187425,6	216283,1	250250,6	302524,9	120,9
Ш. ж.: деҳқончилик	696,8	18119,0	25874,6	30592,3	36237,4	43194,3	55429,2	61755,1	83303,4	98406,4	111904,8	123858,8	151083,4	122,0
чорвачилик	690,4	12737,7	19411,3	25157,7	30197,9	38600,0	44175,4	53844,1	64895,9	89019,2	104378,3	126391,8	151441,5	119,8
Қ/х маҳсулотлари ишлаб чиқариш суръати, олдинги йилга нисбатан фоизда	103,1	106,3	106,2	107,2	106,6	106,3	106,1	106,3	101,0	100,2	103,3	102,7	103,6	0,5 пункт
Ш. ж.: деҳқончилик	103,1	105,9	104,9	107,1	106,1	105,9	105,5	105,7	98,2	95,8	104,8	103,2	103,1	x
чорвачилик	103,0	106,9	108,0	107,4	107,3	106,7	106,9	107,0	104,1	105,7	101,6	102,1	104,1	2,0 пункт



2-жадвалда республика қишлоқ хўжалигининг асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари 2000-2021 йиллар бўйича келтирилган бўлсада, бироқ, бу йиллар даврида инфляция даражасининг ўсиш тенденциясига эгаллигини ҳисобга олиб, таҳлил натижаларининг ишончилигини таъминлаш мақсадида асосий кўрсаткичлар 2021 йилнинг 2020 йилга нисбати сифатида таққосланди. Унга кўра, масалан, қишлоқ хўжалиги ялпи маҳсулоти шу бир йил ичида 20,9 фоизга, жумладан, деҳқончиликда 22,0 ва чорвачиликда 19, 8 фоизга ўсган. Ушбу ижобий ўсиш суръатини бевосита қишлоқ хўжалигига тегишли йўналишларда кўрсатилаётган хизматлар ҳажмининг кўпайиш тенденцияси билан изоҳлаш мумкин (3-жадвал).

3-жадвал

2017-2020 йилларда республика қишлоқ хўжалигига кўрсатилган агросервис хизмат турлари ҳажми ва ўсиш суръати (млн. сўм)

т/р	Қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи корхоналар	Йиллар:				2020 й. 2017 й. га нисбатан, % да
		2017	2018	2019	2020	
1.	МТПлар	746.2	802.4	757.7	702.4	94,1
2.	Сув истеъмолчилар уюшмалари	5668.8	5832.6	5855.2	6013.5	106,1
3.	Ёқилғи-мойлаш таъминоти шохобчалари	65312.1	66215.3	66732.2	67013.5	102,6
4.	Минерал ўғитлар сотиш шохобчалари	127826.5	132012.1	132578.0	133469.3	104,4
5.	Мини банклар	224838.0	227362.0	243458.1	248321.4	110,4
6.	Зооветеринария ва сунъий уруғлантириш шохобчалари	1768.2	1921.5	1887.3	1906.8	107,8
7.	Биолабораториялар	4965.2	5219.8	5367.7	5439.8	109,6
8.	Агрофирмалар	95943.4	94628.2	97032.6	102343.7	106,7
	Жами:	527068.4	533993.9	553668.8	565210.4	107,2

3-жадвал маълумотлари таҳлиliga кўра қуйидаги асосий хулосаларни келтириш мумкин: биринчидан, қишлоқ хўжалик субъектларига кўрсатилган механизация хизматларидан ташқари (унинг ҳажми 2020 йилда 2017 йилга нисбатан 5,9 фоизга камайган) бошқа барча хизмат турлари бўйича ўсиш таъминланган, иккинчидан, энг юқори ўсиш суръати молия (кредит) ресурслари ҳиссасига тўғри келади ва бу қишлоқ хўжалиги субъектларини иқтисодий қўллаб-қувватлаш, учинчидан, экинларини турли касаллик ва зарарку-нандалардан биологик химоя қилиш, ва, шунингдек, чорвачилик соҳасида зооветеринария ва сунъий уруғлантириш бўйича хизматлар ҳажмини кўпай-тиришга катта эътибор берилаётганидан далолатдир.

Таҳлиллар кўрсатишича, 2020 йил ҳолатига кўра республикада, масалан, битта ММТП ҳисобига 47 та фермер хўжалиги ва 2357 га ер майдони, СИУга мос равишда 47 та ва 2370 га, зооветеринария пунктларига 983 та фермер хўжаликлари ва 49446 га ер майдони тўғри келади. Бизнингча, қишлоқ хўжа-лиги маҳсулотлари етиштирувчи барча субъектларга, яъни, фермер, деҳқон ва томорқа хўжаликларига кўрсатиладиган хизмат турлари меъёрларидан келиб чиққан ҳолда инфратузилма объектлари сони ва хизматлар ишлаб чиқариш қувватини ҳар бир локал (маҳаллий) ҳудуд бўйича аниқлаш лозим.

Умуман олганда, бизнингча, қишлоқ хўжалиги ва унинг субъектларига кўрсатилаётган хизматлар ҳажмини ошириш билан бир қаторда агросервис соҳасини модернизациялаш ва диверсификациялашнинг истиқболга мўлжал-ланган стратегик вазифаларни белгилаш, уларни амалга ошириш чора-тад-бирларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эга. Шу жиҳатдан ҳам, давлатимиз раҳбарининг 2022 йил 27-январдаги ПҚ-104-сонли «Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ва 2021 йил 11-майдаги ПҚ-5113-сонли «Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорлари айнан хизматлар кўрсатиш соҳаларига тегишли муаммоларни ҳал этишда



мустаҳкам замин яратди.

Бизнинг фикримизча, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари, айниқса, озиқ-овқат маҳсулотларининг ўртача олганда 70-75 фоизини ишлаб чиқарётган фермер, деҳқон ва томорқа хўжаликлари ҳамда қишлоқ аҳолиси сонининг йилдан йилга кўпайиши ўз навбатида уларга кўрсатиладиган хизматлар ҳажми ва турларини ҳам кўпайтиришни тақозо этади.

Вилоят қишлоқ туманлари кесимида эса аҳоли жон бошига кўрсатилган хизматлар ҳажми бўйича энг юқори ўсиш, 2021 йилда 2010 йилга нисбатан, Ургут туманида 22,8 мартани ва энг паст кўрсаткич узоқ Қўшработ туманига тўғри келган ва 7,7 мартани ташкил этган. Шунинг учун ҳам, иқтисодий эркинлаштириш ва рақамлаштириш шароитида қишлоқ худудлари ва хўжалик корхоналарига кўрсатиладиган хизматлар ҳажми ва сифатини ошириш айнан агросервис соҳаси ва корхоналари фаолиятини диверсификациялаш ва модер-низациялаш, рақобатбардош бўлиш, хусусий мулкчилик шакл ва муноса-батларига мос ташкил этиш ва ривожлантиришни бугунги куннинг устувор вазифаларидан бири эканлигини кўрсатмоқда.

Умуман олганда, агросервис корхоналарини ривожлантириш ва улар сонини кўпайтириш натижасида қуйидагилар амалга оширилади:

- биринчидан, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришига хизмат кўрсатув-чилар сони ортади, хўжаликларнинг хизматлар ҳажми ва турларига бўлган талаби қондирилади;

- иккинчидан, сервис хизматини кўрсатиш тизимида рақобат муҳити яратилади, натижада хизматлар сифати яхшиланади ва баҳоси арзонлашади;

- учинчидан, қишлоқ хўжалигини ўзгараётган табиий-иқлим шароитига мос барқарор ривожлантириш имкониятларини кенгайтиради;

- тўртинчидан, агросервис корхоналарини, айниқса уларнинг замонавий инновация ва технологияларга асосланган янги авлодларини шакллантириш ва ривожлантириш асосида қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлаш, даромад-ларини ошириш билан бир қаторда мураккаб ахборот-коммуникация восита-ларидан фойдаланиш бўйича юқори билим ва малакага эга креатив кадрлар синфини яратиш имкониятини юзага келтиради;

- бешинчидан, хорижий инвестициялар, янги техника ва технологиялар киритиш асосида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш иқтисодий самарадорлигини ошириш ва тармоқни барқарор ривожлантириш учун замин яратади.

Шу нуқтаи назардан, республикада агросервисни янада ривожлантириш мақсадида унинг моддий-техника базасини янада мустаҳкамлаш учун етарли шароит яратилиши, яъни, хизмат кўрсатиш корхоналарига лизинг асосида техника бериш, банклардан имтиёзли кредитлар олиш механизмларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий мақсадга мувофиқ. Ушбу йўналишларда олиб борилаётган ишлар, жумладан, фермер хўжаликларининг ишлаб чиқариш-иқтисодий самарадорлигини ошириш ва замонавий техника воситаларидан унумли фойдаланиш имкониятларини янада оширмоқда.

Хулоса ўрнида қайд этиш жоизки, қишлоқ хўжалиги ва унинг барча соҳалари субъектларида ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш бугунги кунда тармоқнинг моддий-техника базасини модернизациялаш, яъни техника воситаларини айнан ресурстежамкорлик ва экин майдонлари унумдорлигини нафақат сақлаш, балки ошириш нуқтаи назардан янгилаш, уларнинг шлейфи (тиркама жиҳозлари)ни инновацион такомиллаштиришга бевосита боғлиқ бўлиб қолмоқда. Шунинг учун, бизнингча, ушбу йўналишлар билан боғлиқ инвестицион лойиҳалар, дастурлар ва чора-тадбирларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, механизация хизматлари харажатларини камайитириш мақсадида импорт қилинаётган янги авлод техника-технология воситаларини харид қилиш учун имтиёзли кредитлар ва субсидиялар каби рағбатлантирувчи механизмларни жорий этиш лозим деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар рўйхати:

[1]. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / Пер. С англ. Майбурда Е.М.М., 1993.-152.

[2]. Котлер Ф. Маркетинг-менежмент // Экспресс-курс. 2-е изд. / Пер.с англ. Под ред. Божук С.Г. Спб.:Питер, 2005. С.301.

[3]. Котлер Ф. Котлер Ф. Маркетинг-менежмент // Экспресс-курс. 2-е изд. С.301. Составлено по кн.: Николайчук В.Е. Маркетинг-менежмент услуг // Деловой сервис. Спб.: Питер, 2005. С. 608.

[4]. Маркс К., Капитал.//Маркс К., Энгельс Ф. Соч.-2-е изд. – М.:Т.23.-908 с.



- [5]. Ассель Г. Маркетинг: принципы и стратегия: Учебник для вузов. М.: ИНФРА-М, 2001. С.337.
- [6]. Экономикс // Англо-русский словарь-справочник / Долан Э.Дж., Домненко Б.И. М.: Лазурь, 1994. С. 400
- [7]. Ширай В. И. Мировая экономика и международные отношения: Учебное пособие. М.: Дашков и К, 2003. С. 226.
- [8]. Стаханов В.Н., Стаханов Д.В. Маркетинг сферы услуг. М., 2001. – 160 с.
Хоскинг А. Курс предпринимательства. М.: Международные отношения, 1993. – 478 с.
- [9]. Пардаев М.К. Хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари. Сервис.- Самарқанд. 2009.-№1-Б.38-46.
- [10]. Мирзаев Қ.Ж. Агросервис иқтисодиёти . Иқтисод-Молия. Тошкент 2013. –Б.13
- [11]. Курбонов Ж.М. Хизмат, Хизмат кўрсатиш // Сервис. Самарқанд: Servis. 2009 йил 1-сон. 56-бет.
- [12]. Муҳаммедов М.М. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш-устивор масала // Самарқанд. Servis. Ilmiy-omtabor jurnal. 2009 йил 1-сон. 53-бет.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 9-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000